

IPAK QURTINI INTENSIV OZIQLANTIRISH HAMDA OZIQLANISH MAYDONINING PILLA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1098>

Abdrimova Gulbaxor Erimmatovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti, Ipakchilik kafedrası mudiri,
Dotsent (PhD)

E-mail: gulbaharabdirimova71@gmail.com

Matyakubova Gavxar Xudayarovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti, Zootsiyeneriya fakulteti,
Ipakchilik va tutchilik yo'nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: matyakupovagawhar@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda ipak qurtini intensiv oziqlantirish hamda oziqlanish maydonining pilla hosildorligi va sifatiga ta'siri o'rganildi. Tajriba davomida qurtlar yuqori sifatli tut barglari bilan intensiv oziqlantirilib, ular uchun optimal oziqlanish maydoni yaratildi. Kuzatishlar natijasida intensiv oziqlantirish qurtlarning o'sishi va rivojlanishini jadallashtirishi, pillaga chiqish darajasini oshirishi hamda yuqori sifatli pillalar hosil bo'lishiga xizmat qilishi aniqlandi. Olingan pillalar oq rangli, bir xil shaklli va yuqori texnologik sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ldi. Tadqiqot natijalari pillachilikda intensiv oziqlantirish texnologiyalarini qo'llash mahsulot sifati va hosildorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *ipak qurti, tut bargi, intensiv oziqlantirish, oziqlanish maydoni, pilla hosildorligi, pilla sifati.*

Аннотация: В данной работе изучено влияние интенсивного кормления тутового шелкопряда и площади кормления на урожайность и качество коконов. В ходе исследований гусеницы обеспечивались высококачественными листьями шелковицы и содержались при оптимальной площади кормления. Результаты показали, что интенсивное кормление способствует ускорению роста и развития шелкопряда, повышает выход гусениц на коконирование и улучшает качественные показатели коконов. Полученные коконы отличались белой окраской, однородной формой и высокими технологическими свойствами. Установлено, что применение интенсивной технологии кормления является эффективным способом повышения продуктивности и качества продукции в шелководстве.

Ключевые слова: *тутовый шелкопряд, листья шелковицы, интенсивное кормление, площадь кормления, урожайность коконов, качество коконов.*

Abstract: This study investigated the effect of intensive feeding and feeding area on cocoon yield and quality in silkworms (*Bombyx mori* L.). During the experiment, silkworm larvae were provided with high-quality mulberry leaves under intensive feeding conditions and maintained at an optimal feeding area. The results demonstrated that intensive feeding accelerated larval growth and development, increased the cocooning rate, and improved cocoon quality. The obtained cocoons were characterized by a white color, uniform shape, and high technological properties. The findings indicate that intensive feeding technology plays an important role in increasing cocoon productivity and improving product quality in sericulture.

Keywords: silkworm, mulberry leaves, intensive feeding, feeding area, cocoon yield, cocoon quality.

KIRISH

Pillachilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining muhim va yuqori daromadli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda tabiiy ipak ishlab chiqarish hajmini oshirish, pilla sifati va raqobatbardoshligini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqori sifatli pilla yetishtirish ko'p jihatdan ipak qurtlarini parvarishlash texnologiyasiga, ayniqsa ularni oziqlantirish tartibi va oziqlanish maydonini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Ipak qurtining o'sishi va rivojlanishi uchun asosiy ozuqa manbai tut bargi hisoblanadi. Qurtlarni sifatli barg bilan yetarli miqdorda ta'minlash hamda ular uchun qulay oziqlanish maydoni yaratish pilla hosildorligi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oziqlanish maydonining torligi qurtlar o'rtasida raqobatni kuchaytirib, havo almashinuvini yomonlashtiradi va kasalliklar tarqalishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun intensiv oziqlantirish texnologiyalari va oziqlanish maydonini optimallashtirish pillachilik samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Ipak qurtini intensiv oziqlantirish hamda oziqlanish maydonining pilla hosildorligi va pilla sifatiga ta'sirini aniqlash.


Tadqiqot obyekti va uslublari

Tadqiqotlar Qoraqalpog'iston sharoitida ipak qurti (*Bombyx mori* L.) ishtirokida amalga oshirildi. Qurtlar parvarishi davomida yuqori sifatli tut barglaridan foydalanildi. Ayniqsa beshinchi yosh bosqichida qurtlarning fiziologik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda intensiv oziqlantirish tashkil etildi.

Tajriba jarayonida: qurtlarning o'sish va rivojlanishi, yashovchanlik darajasi, pillaga chiqish ko'rsatkichi, pilla sifati, pilla hosildorligi kabi ko'rsatkichlar kuzatildi va baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tajriba davomida qurtlar yuqori sifatli tut barglari bilan muntazam ta'minlandi. Oziqlanish maydonining yetarli tashkil qilinishi qurtlarning bir tekis joylashishiga, havo almashinuvining yaxshilanishiga va bargdan samarali foydalanishiga imkon yaratdi. Qurtlarning intensiv oziqlantirilishi ularning o'sish sur'ati va yashovchanligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Beshinchi yosh davrida qurtlar faol oziqlanib, pilla o'rash uchun zarur bo'lgan oziq moddalarni to'pladi.



Rasm 1.

Ipak qurtlarini intensiv oziqlantirish jarayoni va oziqlanish maydonining tashkil etilishi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, qurtlarning fiziologik holati yaxshi bo‘lib, ularning aksariyati bir tekis rivojlandi. Oziqlanish maydonining yetarli bo‘lishi qurtlar o‘rtasida raqobatni kamaytirdi va mahsuldorlikning oshishiga zamin yaratdi. Pilla o‘rash bosqichida qurtlar maxsus tayyorlangan dasta va shox-shabballarga chiqarildi. Qurtlarning aksar qismi qisqa vaqt ichida pilla o‘rash jarayoniga kirishdi. Pilla o‘rash jarayoni yuqori darajada kechdi. Qurtlarning pillaga chiqish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, bu intensiv oziqlantirish sharoitida organizmda yetarli oziq moddalar to‘planganligini ko‘rsatdi. Pilla o‘rash jarayoni tugallangach, mahsulot sifati baholandi. Olingan pillalar oq rangli, yaxshi shakllangan, tashqi nuqsonlarsiz va bir xil o‘lchamda bo‘ldi. Pillalarning oval shakli va yuqori zichligi ularning texnologik sifat ko‘rsatkichlari yuqori ekanligini ko‘rsatdi.



Rasm 2.

Intensiv oziqlantirilgan ipak qurtlarining pilla o‘rash uchun dastaga chiqish jarayoni.



Rasm 3.

**Intensiv oziqlantirish va optimal oziqlanish maydoni sharoitida hosil qilingan yuqori
sifatli pillalar.**

Jadval 1

Ko‘rsatkich	Baholash
Qurtlarning yashovchanligi	Yuqori
Pillaga chiqish darajasi	Yuqori
Pilla shakli	Oval



Pilla rangi	Oq
Pillaning tashqi sifati	Yaxshi
Texnologik bahosi	Yuqori

Tajriba natijalari intensiv oziqlantirish texnologiyasi pilla hosildorligi va mahsulot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ipak qurtini intensiv oziqlantirish va oziqlanish maydonini ilmiy asoslangan me’yorlarda tashkil qilish pilla hosildorligi hamda pilla sifati oshishining muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Qurtlarni yuqori sifatli tut bargi bilan ta’minlash ularning o’sishi va rivojlanishini jadallashtirib, pillaga chiqish darajasini oshirdi. Oziqlanish maydonining yetarli bo‘lishi qurtlarning bir tekis rivojlanishi va yuqori sifatli pillalar hosil qilishini ta’minladi. Tajribada olingan pillalar oq rangli, bir xil shaklli va yuqori texnologik sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi. Shuning uchun intensiv oziqlantirish texnologiyalarini pillachilik amaliyotida keng qo‘llash yuqori hosildorlik va sifatli mahsulot olishning samarali usuli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasirillayev U.N. Pillachilik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 2. Rahmatullayev A.A. Ipak qurtini parvarishlash texnologiyasi. – Toshkent, 2019. 3. Qodirov B. Pillachilikda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022. 4. Abduraxmonov T. Tutchilik va pillachilik. – Toshkent, 2021.
2. Food and Agriculture Organization. Sericulture Development Guidelines. Rome, 2022.
3. International Sericultural Commission. Modern Sericulture Technologies. Lyon, 2021.
4. Mirzayev Sh., Ergashev A. Pilla sifati va uni baholash usullari. – Toshkent, 2020.